



## **XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON SHAHAR KENGASHI QARORI**

2022 - yil 29 - aprel

VI-56-81-7-106-K/22

Kattaqo'rg'on shahar hokimligi

### **Kattaqo'rg'on shahar 11-son ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabini masofaviy ta'lim shakliga o'tkazish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari shahar Kengashining oltinchi chaqiriq ellik oltinchi sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Shahar Xalq ta'limi bo'limi mudiri J.Axmedovning 11-son ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabi binosida kapital ta'mirlash ishlari olib borilayotganligi sababli o'quv jarayonini qisman masofaviy ta'lim shakliga o'tkazish to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Shahar hokimi o'rinbosari (J.Nosirov), shahar Xalq ta'limi bo'limi (J.Axmedov)ga 11-son ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabining boshlang'ich 1-2-3-sinf o'quvchilari 28-apreldan, 5-6-sinf o'quvchilari 5-maydan boshlab ta'lim jarayonlarini maktab binosida kapital ta'mirlash ishlarini butkul tugatilmaguniga qadar masofaviy ta'lim shaklida olib borishni tashkillashtirish mas'uliyati yuklansin.

3. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (U.Sharipova) hamda shahar hokimining o'rinbosari (J.Nosirov) zimmalariga yuklansin.

**Kengash raisi**



**G. Alimova**